

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

DEKABR

ANDIJON, 2024

KONSTITUTSIYA - FUQAROLAR HUQUQ VA ERKINLIKLARINING MUSTAHKAM HIMOYACHISI

Abduraimov Sherali,

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti
Qishloq xo‘jaligi huquqi va agroturizm kafedrasi assistenti

Nasullayeva Umida Zavqiddin qizi,

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti
yurisprudensiya ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich 109- guruh talabasi

Telefon: +998(91)845-21-75

Email: www.nasullayevaumida906@gmail.com

Sattorova Muharram Abdusamat qizi,

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti
yurisprudensiya ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich 109- guruh talabasi

Telefon: +998(97)067-10-06

Email: www.m92271613@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada konstitutsiya fuqarolar uchun qanchalik muhimligi, huquq va erkinliklarining kafolati sifatida muhim rol o‘ynashi hamda konstitutsiyamizdagi yangi o‘zgartirish va tuzatishlar inson foydasi va farovonligi uchun xizmat qilishi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: konstitutsiya, tenglik, onalik, bolalik, otalik, advokatura, inson, fuqaro, huquqlar.

Annotation: This article explains how important the constitution is for citizens, how it plays an important role as a guarantee of their rights and freedoms, and how new changes and amendments in our constitution serve for the benefit and well-being of people.

Key words: constitution, equality, motherhood, childhood, fatherhood, advocacy, human, citizen, rights.

Аннотация: В данной статье объясняется, насколько важна конституция для граждан, какую важную роль она играет в качестве гарантии их прав и свобод, а также как новые изменения и дополнения в нашей конституции служат благу и благополучию людей.

Ключевые слова: конституция, равенство, материнство, детство, отцовство, пропаганда, человек, гражданин, права.

Konstitutsiya – bu davlatning asosiy qonuni, bosh qonuni. Konstitutsiya-davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruva organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirish tartibini, savlov tizimini, shuningdek, sud tizimini, advokatura, prokuratura organlari tizimini tartibga solishda birlamchi manba hisoblanadi. Konstitutsiya davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini belgilab beradi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilindi[1]. Ushbu Konstitutsiya tom ma’noda Yangi O‘zbekistonning yangi taraqqiyoti uchun dasturilamal bo‘moqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Xususan, Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi – ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi, inson huquq va

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

DEKABR

ANDIJON, 2024

erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi Konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi. [2.3-bet].

Bizningcha, yangi konstitutsiya davlat hokimiyatini fuqarolar qo'liga berdi. Xususan, konstitutsya qonunchilik jarayonlarini sekinlashtirdi va shaxsiy huquqlarning haqoratlari buzilishini oldini oldi va qattiq ta'qipladi. Bundan tashqari, konstitutsiya inson huquqlarini mansabdar shaxslar va davlat organlari tomonidan buzilishini qat'yan man qildi. Bu holatning yaqqol misoli konstitutsiyamizning 55-moddasida aniq belgilab qo'yildi: "Har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli.

Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdar shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqi kafolatlanadi.

Har kim O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli.

Har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdar shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararning o'rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga ega." [1.22-bet]

Shuningdek, yangi tahrirlangan konstitutsiyamizning 78- moddasida nafaqat onalik va bolalik hamda qo'shimcha sifatida otalikni davlat tomonidan muhofaza qilinishi belgilandi. "Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi." [.1.29-bet]

Bu norma xotin-qizlar va erkaklar teng huquqligi va davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyatda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minladi.

Umuman olganda, konstitutsiya qisqa vaqt ichida fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlaydigan huquqiy soha tashkil etdi. Aytib o'tish joizki, konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlar mazmunan quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzish bo'lgan harakatlarni taqiqlash hamda chegaralarning yuridik me'yorlarini mustahkamlash;
- fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini hech qanday to'siqsiz amalga oshirishlarida davlat organlari hamda mansabdar shaxslarning mas'ulligi;
- huquqlarni buzganlik uchun yuridik javobgarlikning belgilanganligi;
- zo'ravonlik qilinishidan himoyalanishini ta'minlovchi maxsus me'yorlar (shikoyat, sudga murojat qilish huquqlari) mavjudligi.

Xulosa qilib aytganda, inson huquqlarining rivojlanishi uzlusiz davom etuvchi va takomillashib boruvchi jarayon hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish va ta'minlash davlatning asosiy vazifasi.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

DEKABR

ANDIJON,2024

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn] Rasmiy nashr. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – 80 bet.
2. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O‘quv qo‘llanma. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2024-y. – 216 bet.
3. <https://constitution.uz>
4. https://www.conferences.uz/plugins/themes/bootstrap3/pdf/conf_40_2022/10.Pedagogika_yonalishi_1_qism.pdf